

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025
Accepted: 1 December 2025
Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

COMPONENTS OF PEDAGOGICAL ARTISM IN THE FUTURE TEACHER

Pirimbetov Bkhit Allabaevich

University of Innovative Technologies

Acting Associate Professor of the Department of "Preschool and Primary Education",

Doctor of Pedagogical Sciences

Abstract. This article discusses how it should become a personal-professional quality that allows one to feel through inner intuition that it is a language of live communication, creativity, and reflection that opens the way to knowledge and education in today's rapidly changing world.

Keywords: mastering the teaching profession, creative individuality, development, personal-professional creativity, modern education, lesson.

BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI

Pirimbetov Bxit Allabaevich

Innovatsion texnologiya universiteti

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi dotsent v.b, p.f.f.d

Annotatsiya. Ushbu maqolada aynan u hozirgi jadal o'zgarayotgan dunyoda bilish va ta'lim sari yo'l ochadigan jonli muloqot tili, ijod va refleksiya tili ekanligini ichki intuitsiya orqali his qilish imkonini beradigan shaxsiy-kasbiy sifatga aylanishi kerak ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchilik kasbini egallash, ijodiy individuallik, rivojlantirish, shaxsiy-kasbiy ijodkorlik, zamonaviy ta'lim, dars.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N91>

Kirish. Ma'lumki, har qanday makon va zamonda ham o'qituvchi oldiga tez tarqalayotgan va ta'lim oluvchilarga tobora qulay bo'lib borayotgan boshqa axborot manbalari bilan raqobatga kirisha olish vazifasi qo'yiladi.

Adabiyotlar. O'qituvchining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan ta'lim oluvchilarni o'zining fani, ushbu fanning o'ziga xos muammolari va vazifalarini hal qilishda amalga oshirgan olimlar E.Ruskaya, V.G.Aleksandrova, N.A.Barisheva, L.Yu.Berikxanova, V.M.Bukatovalarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Metodologiya. O'qituvchining o'quvchilarni darsga qiziqтира olishi, muloqot mazmuni va muhiti hamda pedagogik faoliyatni tashkil etishga yondashuvlarni to'g'ri tanlay bilishi talab etiladi. O'qituvchi bilan pedagogik muloqot o'quvchilar uchun yorqin, rang-barang, erkin, ijodiy va o'zini o'zi rivojlantirishga chorlaydigan bo'lishi zarur.

Muhokama. E.R.Russkayaning fikriga ko'ra, «Kattalar, pedagoglar va ota-onalar ko'pincha aytadigan narsasi yo'qligidan emas, balki ularni tinglash qiziq bo'lmaganidan e'tiborini yo'qotadi. Agar bugun bizdan «Maktabda eng sevimli faningiz qaysi edi?» deb

so'rashsa, qaysi fan nomini aytmaylik, javoblarimizda bitta o'xshashlik bo'ladi: bu fan o'qituvchini yoqtirganimiz uchun eng sevimli bo'lgan», degan javobni olamiz [4].

Natijalar. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan kuzatishlar, anketa so'rovlari va intervyular E.R.Russkayaning "sevimli fan tanlovi" bilan "o'qituvchiga munosabat" o'rtasidagi korrelyatsiya haqidagi xulosasini tasdiqlaydi [4].

Ko'pchilik pedagoglar tomonidan inkor qilinadigan, pedagogik jarayonga ijodiy salohiyatning rivojlanishi va o'z individualligini hissiyot orqali kashf qilishga olib keladigan estetik yondashuv pedagogik ta'sirni jonlantirish, ruhlantirish uchun noyob imkoniyatdir. Aynan u hozirgi jadal o'zgarayotgan dunyoda bilish va ta'lim sari yo'l ochadigan jonli muloqot tili, ijod va refleksiya tili ekanligini ichki intuitsiya orqali his qilish imkonini beradigan shaxsiy-kasbiy sifatga aylanishi kerak.

O'qituvchining kasbiy pedagogik yo'nalganligi, pedagogik vazifalarni hal qilishga ko'maklashadigan bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi ro'y beradigan kasbiy tayyorgarlikning «o'z-o'zini belgilash» bosqichi o'z iqtidorini uyg'otishi, tafakkuri hamda xulqida obrazlilik va mantiqiylikni birlashtirishga o'rganish uchun eng maqbul davri hisoblanadi. O'qituvchining ijodkorligini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar maqsadli tarzda yaratilsa, unda pedagogik artistisizm elementlaridan keng ko'lamda foydalanishga erishiladi.

O'qituvchilik kasbini egallash va ijodiy individuallikni rivojlantirish qator shaxsiy-kasbiy sifatlarga bog'liq. Ular sirasiga pedagogik artistizm asosini tashkil etadigan tavsiflar: hissiyot, intuitsiya, empatiya, tasavvur, kuzatuvchanlik, improvizatsiyalash qobiliyati kabilarni kiritish mumkin. Pedagogik artistizmni egallagan o'qituvchi o'z faoliyatida ijodiy individualligining betakror xususiyatlarini erkin amalga oshiradi, o'quvchilarning esa o'qituvchi dars berayotgan faniga nisbatan qiziqishlari ortib boradi.

O'qituvchi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish yo'li bilan yaratuvchi bo'lib qolmaydi. Buning uchun u pedagogik va axborot texnologiyalarini amalga oshirish yo'llari va usullarini puxta egallashi, pedagogik artistizm elementlarini chuqur egallagan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda o'qitish tushunchasining muqobili sifatida ta'lim oluvchilarni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy, mohiyatli tushunchasi hisoblanmoqda. Chunki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida shunday ijodiy muhit va shart-sharoit yaratish kerakki, ta'lim oluvchilar o'quv jarayonining faol sub'ektiga aylansin, o'qituvchilarning diqqat markazida esa o'quvchilarning bilish faoliyati, ya'ni o'qitish emas, balki bilish jarayonini rivojlantirish bo'lsin. Ta'limning maqsadi ta'lim oluvchilarni ma'rifatli qilish usulidan erkin, tanqidiy va mustaqil fikrlaydigan, o'zini-o'zi konstruksiyalay oladigan, kelajakdagi hayotiy strategiyasini belgilay oladigan, istiqbol rejalarini o'zgartirishga qodir shaxsni shakllantirish hamda uning individual xususiyatlari, layoqatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi kerak. Bu o'rinda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining alohida o'rni mavjud. Chunki, biz xohlagandek, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish o'qituvchilarning hayotiy tajribalari, kompetentsiyalari, dunyoqarashlari, ularning bilim darajalari, pedagogik artistizmni egallaganliklari va o'z ustlarida qay darajada ishlashlariga bog'liq.

Bugungi kunda yuqoridagilar bilan bir qatorda, o'qituvchilardan kamida bitta xorijiy til hamda axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishlari talab qilinmoqda va bunga bosqichma-bosqich erishilmoqda. Aks holda o'qituvchilarning sa'y-harakatlari ta'sirli, amaliy bo'lishi uchun uning eruditsiyasi, ilmiy-uslubiy mahorati, ta'lim

texnologiyasini muvaffaqiyatli tanlashi etarli bo'lmaydi. Bu jarayonda o'qituvchining yuksak darajadagi nutqiy mahorati, mimikalari, darsda o'zini tutishi, kiyinish odobi kabilar muhim o'rin egallaydi. Shundagina dars jarayonida ta'lim oluvchilar pedagogik artistizmdan unumli foydalanadigan bu kabi o'qituvchilarni yorqin betakror shaxs sifatida qabul qiladilar va undan o'rnak va "namuna" oladilar.

O'qituvchining ijodkorligi xususida fikr yuritganda, ijod, ijodkorlik nima, ijodkor o'qituvchi qanday bo'lishi kerak, degan qator savollarga javob topishga ehtiyoj vujudga keladi.

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun biz, ilmiy adabiyotlar hamda mutaxassislarning asarlariga murojaat qilamiz. Jumladan Pedagogika entsiklopediyasida ijodkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Ijodkorlik – yangilik uchun kurashish, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o'zining faoliyatida oqilona foydalanishga erishish, doimo o'z ustida ishlash. Ijodkorlik – insonning ongli, ma'lum maqsadga yo'nalgan, harakatchan faoliyatidir".

Bizning fikrimizcha, ijod – natijasi ob'ektiv yoki sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan, yangi, original va yanada takomillashgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yaratilishi, mavjudlarining esa takomillashtirilishiga oid faoliyatdir.

Ma'lumki, ijodning bir qator turlari mavjud. Masalan, ilmiy ijod, badiiy ijod, pedagogik ijod, texnik ijod va h.k. O'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida pedagogik ijod bilan shug'ullanibgina qolmasdan, badiiy ijod, ilmiy ijod bilan ham mashg'ul bo'ladilar.

O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati – shunday faoliyatki, ijod ustuvor komponent sifatida uning maqsadi yoki usullari tizimiga kiradi. Bugungi kunda o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini shartli ravishda ijodiy va ijodiy bo'lmagan (noijodiy) faoliyatga bo'lish mumkin va ularni bir qator belgilariga ko'ra farqlash mumkin. Masalan:

- natijasiga ko'ra, bunda ijodkorlik yangi, avval ma'lum bo'lmagan yangiliklarni hisobga olish bilan tavsiflanadi; «ijodsizlik» esa amalda ma'lum, standart hamda tayyor mahsulot beradi;

- amalga oshirish usuliga ko'ra, bunda ijodkorlik natija tomon harakatlanishida betakror, ya'ni tamomila yangi usul yaratish, yoki harakat usullarining muayyan kombinatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi; «ijodsizlik» esa natijaga erishish usulining takrorlanishligi (shablonligi) bilan tavsiflanadi;

- ahamiyatiga ko'ra, bunda ijodkorlik faoliyat taraqqiyotining sifat jihatidan farq qiladigan bosqichlarini belgilaydigan, uning bevosita harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Ijodsizlik esa tub o'zgarishlar, ya'ni ijod uchun sharoitlarni miqdoriy to'plash vositasi hisoblanadi.

Ijodkor o'qituvchi – o'quv-tarbiya ishlarining shakl, metod va usullarini takomillashtirish hamda yangilarini ishlab chiqishga intiladigan novator; hatto odatiy topshiriqda ham yangi muammoni ko'ra biladigan, o'quvchilar uchun ijodiy topshiriqni shakllantira biladigan, ularni mazkur topshiriqlarni hal qilish va tahlil etish bo'yicha mustaqil izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatiga faol jalb qila oladigan shaxs; o'z maqsadini o'quvchilarini faqat bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bilan boyitishdagina emas, balki ularni aqliy-intellektual jihatdan rivojlantirish, ularni ijodiy faoliyatga tayyorlay oladigan, yoshlarda turli kompetentsiyalarni shakllantira oladigan, qolaversa dars jarayonida pedagogik artistizm elementlarini samarali qo'llay oladigan yo'lboshchi bo'lishi kerak[5].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ayrim o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlik jihatlari mavjud emas. Buning bir qator sabablarini ko'rsatish mumkin. Jumladan:

o'qituvchilarda o'quvchilar hamda pedagogik faoliyatga nisbatan muhabbatning mavjud emasligi;

ularda ijodiy pedagogik qobiliyatlarning rivojlanmaganligi;

pedagogik ijodkorlikka nisbatan intilishning mavjud emasligi;

dars va darsdan tashqari jarayonlarda ta'lim-tarbiya ishining eskirgan va kam samara beradigan shakl va metodlaridan voz kechishni istamasliklari yoki uddalay olmasliklari;

dars jarayonlarida o'qituvchilarning pedagogik artistizmdan foydalana olmasliklari, ulardagi kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi;

o'zi dars beradigan muayyan fanlar bo'yicha o'quvchilarni rivojlantirishga oid zarur o'quv-uslubiy komplekslarning ishlab chiqilmaganligi;

ijodiy faoliyatni real va moddiy rag'batlantirish bo'yicha maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning mavjud emasligi;

ta'lim muassasasida boshqaruvning avtokratik uslubi hali ham saqlanib qolayotganligi;

ma'muriyat va xalq ta'limi tizimi yuqori tashkilotlari tomonidan haddan ortiq nazorat (qog'ozbozlikning ko'pligi)ning ko'pligi;

pedagogik jamoa va unda ijodiy muhitning mavjud emasligi;

ta'lim muassasasida pedagogik jamoaning ahil emasligi, hamkasblar orasida do'stona muhit yaratilmaganligi, uyushmaganligi;

o'qituvchilarning o'quv reja va dasturlari bilan bevosita «bog'lab qo'yilganligi», hayotiy tajribalarning hisobga olinmasligi, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilmayotganligi;

sinflarda o'quvchilar sonining belgilangan me'yor talablaridan ko'payib ketganligi, sinf xonalarining bunday holatlarga tayyor emasligi, muayyan talablarga javob bermasligi;

ta'lim muassasalarida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarning joriy etilmasligi yoki mavjud emasligi.

Yuqoridagi holatlarda o'qituvchilar tomonidan tashkil etiladigan dars mashg'ulotlari samarali natija bermaydi.

O'quv-tarbiya jarayonini shunday tashkil etish kerakki, unda o'qituvchi pedagogik artistizm elementlaridan unumli foydalansin hamda ijodkorligining barcha jihatlari namoyon bo'lsin. Shundagina o'quvchilarda ijtimoiy yo'naltirilgan bilishga intiluvchanlik, qiziquvchanlik, layoqatlilik, mustaqillik, erkinlik, tashabbuskorlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanadi va rivojlanadi[6].

Bunday jarayonda o'qituvchi oldida muntazam tarzda bir qator ijodiy vazifalar turadi. Jumladan:

ta'lim sifati va o'qitish mazmunini tubdan o'zgartirish;

belgilangan me'yorlarga amal qilish;

o'quvchilarning individualligi, imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish;

nostandart vaziyatlarda samarali echim topa olish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash mumkinki, o'qituvchilar muntazam o'z ustida ishlashlari, ta'lim tizimiga oid yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lishlari, ilg'or xorijiy tajribalarni doimiy o'rganib borishlari, ulardan zarurlarini ta'lim amaliyotida qo'llay olishlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirib borishlari talab etiladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyati uchun muhim sifatlari sirasiga uning o'z fanini bilishi, pedagogik ta'sir metodikasini egallaganligi, tafakkurning rivojlanganligini kiritish mumkin. O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladigan xuddi shunday muhim kasbiy sifatlardan biri uning pedagogik artistizm elementlarining qay darajada egallaganligi bilan bog'liq.

Shu nuqtai nazardan «pedagogik artistizm», «o'qituvchining aktyorlik san'ati», «pedagogik ijodkorlik», «pedagogik mahorat» va «pedagogik taktika», «pedagogik texnika» tushunchalarini farqlab olish zarur deb topdik.

Pedagogik artistizm – pedagogik ijodning barcha bosqichlarida u yoki bu darajada faoliyat ko'rsatadigan fenomen. Ta'lim oluvchilar bilan aloqa o'rnatish, ularning ishonchini qozonish va shu asosda pedagogik jarayonning barcha sharoitlarini hisobga olgan holda harakatlanishni ta'minlaydigan jismoniy va ruhiy sifatlarning birikishi natijasi.

Pedagogik artistizm ta'lim oluvchilar bilan aloqa o'rnatish, ma'lum ma'noda o'quvchilarning ishonchini qozonish, keyin mazkur dars, mashg'ulotning barcha holatlarini (sharoitlari) hisobga olgan holda ish ko'rishga yordam beradigan ma'naviy va jismoniy sifatlarning murakkab qorishmasi hisoblanadi.

Aktyorlik qilish – o'qituvchi darsda yangi mavzu mazmunini bayon qilish jarayonida uning pedagogik texnologiyalari va texnikalardan unumli foydalangan holda, aktyorlik mahorati bilan tushuntirishi, mimikasi, ovoz tembri imkoniyatlaridan o'z vaqtida to'g'ri qo'llay olishi tushuniladi. Aslida har bir o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati davomida pedagogik artistizm elementlaridan muayyan darajada foydalanadi. Lekin uning o'quvchilarni intellektual darajada rivojlantirish imkoniyatlarini bilmaydi. O'qituvchi mashg'ulot davomida mavzu mazmunidan kelib chiqib rolga kirishishi kerak. Shundagina darsning ta'sirchanligi ortadi, uning samaradorligi ta'minlanadi.

Pedagogik atamalar lug'atida «pedagogik ijodkorlik», «pedagogik mahorat» va «pedagogik taktika», «pedagogik texnika» tushunchalari quyidagicha izohlangan[6].

Pedagogik ijodkorlik – 1) ta'lim beruvchi tomonidan o'quv-tarbiya vazifalarini yuksak sifat darajasida o'zgacha hal etilishi; 2) ta'lim-tarbiya amaliyoti va nazariyasining boyitilishi.

Pedagogik mahorat – 1) kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlari majmui; 3) san'at darajasidagi mahorat; 4) pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlik.

Pedagogik taktika – ta'limning bosh maqsadi yo'lida xususiy, oraliq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil qilish usuli. Taktika jarayonining oxirida strategik maqsadlarga ko'proq samara bilan erishishni ta'minlash uchun sharoitning o'zgarishlarini mos ravishda hisobga olish.

Pedagogik texnika – pedagoglarning ichki faoliyatidan kelib chiqadigan o'z mahoratini uzluksiz rivojlantirish va ifodalay olish qobiliyati.

Bizningcha, pedagogik mahorat – pedagog professiogrammasiga muvofiq ega bo'lishi lozim bo'lgan barcha sifatlarning yuqori darajadagi ifodasi, uning kasbiy faoliyatda o'z-o'zini ijodiy tashkil qilishini ta'minlaydigan xususiyatlari majmui, ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng yuqori darajadagi natijadorlik. Bunday mahorat poydevori pedagogning umumiy madaniyati bilan bog'liq bo'lib, uning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kompetentsiyalar va pedagogik texnikani egallaganligini ifodalaydi.

Pedagogik texnika esa o'qituvchiga o'zini chuqurroq, yorqinroq, iste'dodliroq ifodalash, ta'lim jarayonida optimal natijalarga erishishda ko'maklashadigan ko'nikma va malakalar majmui.

Biz ilmiy tadqiqotimiz davomida pedagogik texnika elementlari yadrosini quyidagilar tashkil qilishiga amin bo'ldik:

- o'qituvchining pedagogik muloqotga oid malakasi;
- nutq texnikasi va madaniyati (ovozi, nafas olish, diksiya, intonatsion bo'yqondorlik, savodxonlik va sh.k.);
- hissiyotlari va munosabatlarni ifodali ko'rsata bilish (mimika, pantomimika, tashqi qiyofa);
- o'z pedagogik holatini mustaqil boshqarishi (o'z-o'zini nazorat qilish, sabot va sh.k.).

Yuqorida ta'kidlanganlardan ko'rinadiki, pedagogik texnika o'qituvchi tomonidan axborotlarni etkazish, idrokning vizual va dolzarb tomonlari orqali ta'lim oluvchilarga o'z hissiyotlari va fikrlarini etkazishiga ko'maklashadigan malakalar hisoblanadi. Bundan tashqari, pedagogik texnika o'qituvchining ijodiy xulqi va bilimlarni o'quvchilar ongiga singdirish va o'zaro samarali ta'sir qilishiga ko'maklashadi.

Pedagogik artistizm esa o'qituvchilardan quyidagilarni talab qiladi:

- ta'lim jarayonida har tomonlama, uyg'un harakatlanish qobiliyatini;
- o'zining yuz qiyofasini o'zgartirish, o'quvchilarni o'ziga jalb qila olish, jonlilik, keskinlik, ifodalilikni;
- imo-ishora va mimikasining boyligi va undan ta'lim jarayonida foydalanish layoqatini;
- hikoyachilik iqtidorining mavjudligini;
- o'qituvchilarga yoqimtoy bo'la olish, ichki nazokat, obrazli tafakkurning rivojlanganligini;
- ilhomlanish, ruhlanish, ruhlantirish ko'nikmalarining tarkib topganligini;
- turli rollar orqali nostandart echimlar, qarorlarga intilish qobiliyatining taraqqiy etganligini;
- turli noqulay vaziyatlarda psixik xususiyatlari va asab tizimini jilovlay olish layoqatining rivojlanganligini.

Xulosalar. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha sifatlar pedagogik artistizm – pedagogik ijod jarayonining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada faol bo'lgan fenomen ekanligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida pedagogik artistizmning o'rni va ahamiyati o'qituvchining kasbiy faoliyati takomillashib borgan sari o'zgarib rivojlanib borishi mumkin. Pedagogik artistizm kasbiy tajriba ortib borgan sari esa o'qituvchi faoliyatining barcha tarkibiy qismlariga integratsiyalashishi, uning butun faoliyatini sintezlashi va yaxlit qilishiga ko'maklashadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda

- oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni // www.Lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni // www.Lex.uz
 5. Русская.Е Имидж современного педагога. // Мир образования. 1995. №1. С 91.
 6. Александрова В. Г. Какая наука нужна сегодня учителю? // Магистр. — 2000. - № 2.
 7. Барышева Н.А. Педагогические условия формирования умений педагогической режиссуры у будущих учителей: Дис. на соиск. учен. степ, канд. пед. наук. — Челябинск, 2000.
 8. Берикханова Л. Ю. Педагогическая импровизация как индивидуально своеобразный компонент педагогической деятельности // Творческая индивидуальность педагога. — Тюмень, 1991. — С. 32—38.
 9. Букатов В. М. Учителю о режиссуре настойчивого поведения // Педагогика. — 1996. — № 3.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).